JIZZAX VILOYATI DO‘STLIK TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 23 - dekabr 356-3-47-Q/22 Do‘stlik tuman hokimligi

Tuman hududidagi 4P-198 Do‘stlik-Arnasoy avtomobil yo‘liga yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda), “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 28-son, 645-modda) hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y.) ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Do‘stlik tumani hududidagi 4P-198 Do‘stlik-Arnasoy avtomobil yo‘liga ilovaga muvofiq yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

2. Tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (Z.Qulbekov)ga tuman hududidagi 4P-198 Do‘stlik-Arnasoy avtomobil yo‘liga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga

soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHXB (Z.Anarboev) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

5. Ushbu qaror “Do‘stlik hayoti” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Tinchlikov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **SH.Darvishev**

Do‘stlik tuman hokimining
2022 yil 23 dekabrdagi
356-3-47-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi balansidagi ichki yo‘llarga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari bo‘yicha

MA’LUMOT

T/R	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Soni	Yo‘l belgisi nomi
1.	4P-198 Do‘stlik-Arnasoy avtomobil yo‘li	PK 00+PK 620 o‘ng tomon	1	4.3. Aylanma harakatlanish
2.	4P-198 Do‘stlik-Arnasoy avtomobil yo‘li	PK 00+PK 650 o‘ng tomon	1	4.2.1. To‘siqni o‘ngdan aylanib o‘tish
3.	4P-198 Do‘stlik-Arnasoy avtomobil yo‘li	PK 00+PK 670 o‘ng tomon	1	2.3.2. Tutashuv o‘ngdan
4.	4P-198 Do‘stlik-Arnasoy avtomobil yo‘li	PK 00+PK 670 o ‘ng tomon	1	2.4. Yo‘l bering
5.	4P-198 Do‘stlik-Arnasoy avtomobil yo‘li	PK 00+PK 760 chap tomon	1	4.2.1. To‘siqni o‘ngdan aylanib o‘tish
6.	4P-198 Do‘stlik-Arnasoy avtomobil yo‘li	PK 00+PK 730 chap tomon	1	4.3. Aylanma harakatlanish
7.	4P-198 Do‘stlik-Arnasoy avtomobil yo‘li	PK 00+PK 710 chap tomon	1	2.4. Yo‘l bering
JAMI:			7	